

# O'QITUVCHILARNING XATOLARGA BO`LGAN MUNOSABATIGA KO`RA TURLARI

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi

*FarDU, nemis va fransuz tillari kafedrasi katta o`qituvchisi, (PhD)*

**Annotatsiya:** Maqolada chet til o`qituvchilarining xatolarni to`g`rilashga bo`lgan munosabatiga ko`ra qanday turlarga ajratilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** nemis tili, o`qituvchi, til o`rganuvchi, xato, murosasiz yondashish, bag`rikenglik bilan yondashish.

**Аннотация:** В статье рассматривается классификация учителей иностранного языка по их отношению к исправлению ошибок.

**Ключевые слова:** немецкий язык, учитель, изучающий язык, ошибка, бескомпромиссный подход, толерантный подход.

**Abstract:** The article discusses how foreign language teachers are divided into types according to their attitude to correcting mistakes.

**Key words:** German language, teacher, language learner, mistake, uncompromising approach, tolerant approach.

Nemis tili darslarida til o`rganuvchilar tomonidan yo`l qo`yilgan xatolarni to`g`rilashda o`qituvchining samimiyligi munosabatda bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz quyida o`qituvchilarning xatolarni to`g`rilashga bo`lgan munosabatlariga ko`ra qanday turlarga ajratilishi yuzasidan o`z fikrlarimizni berib o`tmooqchimiz.

Chet til o`qituvchilari lisoniy xatolarni to`g`rilaydilar. Ammo buni qanday me`yorlarga asoslangan holda amalga oshiradilar, og`zaki xatolarni to`g`rilash chet tili darslarida qanday ahamiyatga ega degan savollarga javob berish lozim. Umuman olganda o`qituvchilar tomonidan chet til darslaridagi xatolar o`quvchilarga yordam berish uchun to`g`rulanadi. Lekin xatolarni og`zaki to`g`rilashning boshqa sabablari ham bo`lishi mumkin. Ko`p hollarda o`qituvchilar xatolarni to`g`rilashni o`zlarining vazifalari deb hisoblashadi. Bundan tashqari xatolarning to`g`rulanishi til o`rganuvchilar tomonidan o`qituvchining jiddiy qabul qilinishiga sabab bo`ladi.

Ba'zan xatolarni to‘g‘rilash sinf yoki guruhdagi tartibni saqlab turishga ham xizmat qiladi.

Darsda o‘qituvchini asabiylashtirgan yoki jahlini chiqargan til o‘rganuvchilarning xatolari ko‘p to‘g‘rulanishi va bu orqali o‘qituvchi xonada kimga bo‘ysunish kerak ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi ekanligini tajribalarimizda kuzatganmiz.

Yuqorida keltirilgan sabablardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o‘qituvchining xatolarni to‘g‘rilash borasida o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida ko‘rsatmalarni ishlab chiqish va bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilarini ular bilan tanishtirish muhim.

Chunki xatolarni to‘g‘rilash bilan ishslash o‘qituvchilarga ma'lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Xatolarni og‘zaki to‘g‘rilashning turli yo‘llari mavjud. Ular dars va darsdagi o‘zaro munosabatlarga o‘z ta'sirini o‘tkazmay qolmaydi.

O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra ham bu omil darsga eng katta ta'sir etuvchi omil deb qaraladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘qituvchilarning xatolarni og‘zaki to‘g‘rilashda o‘z usullariga ega bo‘lishlari va buni ongli ravishda amalga oshirishlari til o‘rganuvchilarning chet tilni yanada samaraliroq o‘rganishlariga olib kelar ekan.


Olib borilgan tajriba-sinov ishlarida o‘qituvchilarning xatolarni og‘zaki to‘g‘rilash turlari borasidagi fikrlari xilma-xil ekanligi kuzatildi. Unga ko‘ra o‘qituvchilar xatolarga bag‘rikenglik bilan yondashadigan, xatolarga murosasiz yondashadigan va xatolarga o‘rtacha yondashadigan tiplarga ajratiladi.

Birinchi tipga xatolarga bag‘rikenglik bilan yondashadigan o‘qituvchilar kiradi. Bunday o‘qituvchilar til o‘rganish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xatolar darsga salbiy ta'sir qilishidan qo‘rqmaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, xatolarni har doim to‘g‘rilab turish zarur emas.

Ikkinci tipga kiradigan o‘qituvchilar esa xatolarga murosasiz yondashadigan o‘qituvchilar bo‘lib, ular xatolarning til o‘rganish jarayoniga salbiy ta'sir o‘tkazishidan qo‘rqadilar. Bunday o‘qituvchilar odatda dars jarayonida til o‘rganuvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan barcha xatolarni to‘g‘rilaydilar.

Uchinchi tipga mansub o'qituvchilar esa xatolarga o'rtacha yondashuvchi o'qituvchilar bo'lib, ular uchun xatoni to'g'rilash odatda jarayonga bog'liq bo'ladi. Ular tomonidan ba'zan barcha xatolar to'g'rilansa, ba'zan xatolarga bag'rikenglik qilinadi.

Yuqorida keltirilgan tipdagi o'qituvchilarning xatolarni to'g'rilash ohangi bilan bir-biridan farq qiladi. Odatda o'qituvchilar xatolarni ayblash ohangida, do'stona ohangda, kinoyali ohangda, neytral ohangda, baland yoki past ovozda to'g'rilashadi. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, deyarli barcha til o'rganuvchilar xatolarini do'stona ohangda to'g'rilanishini, o'qituvchilar ularga past ovozda gapirishini yoqtirishadi. Tajriba-sinovda ishtirok etganlar o'z o'qituvchilarini xatolarni qaysi ohangda to'g'rilashini quyidagicha baholadilar. (Diagrammaga qarang.)



**Diagramma № 1. O'qituvchilarni xatolarni qanday ohangda to'g'rilashlari**

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ko'plab o'qituvchilar til o'rganuvchilarning xatosini ayblovchi ohang bilan tuzatadilar. Ayni paytda til o'rganuvchilar o'qituvchilaridan do'stona to'g'rilashni kutadilar. Shu sababli o'qituvchilar ham xatolarni bartaraf etish kompetensiyalarini takomillashtirish

borasida o`z ustida ishlashlari maqsadga muvofiq. Ijobiy fidbek-ijobiy samaraga erishish kaliti ekanligini yodda tutish lozim.